



## O'ZBEK TARIXIY ANTROPONIMIYASINING O'RGANILISHIGA DOIR

<sup>1</sup>Umarova Nargizaxon Rustamovna

Farg'ona davlat universiteti professori  
filologiya fanlari doktori

<sup>2</sup>Alobidinova Ominaxon Muhiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7980425>

### ARTICLE INFO

Received: 19<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 28<sup>th</sup> May 2023

Online: 29<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Onomastika, antroponimika, antroponim, tarixiy antroponimiya, badiiy nomlar, to'qima nomlar, o'lik ismlar, diniy ismlar, an'anaviy nomlar.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tilshunoslikning onomastika tarmog'i va uning tarkibiga kiruvchi antroponimika sohasi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, tarixiy antroponimiya va uning nazariy asoslari, tilshunoslikda paydo bo'lish tarixi, o'zbek tarixiy antroponimiyasining o'rganilishi to'g'risida fikrlar aytib o'tiladi hamda xulosalar chiqariladi. Tarixiy antroponimlarga badiiy asarlardan namunalar keltirilgan hamda izohlab ketilgan.*

### Kirish

O'zbek onomastikasining eng yirik sohalaridan biri antroponimikadir. Antroponimika nomshunoslikning kishi atoqli otlarini o'rganuvchi bo'limi sanaladi. O'zbek antroponimlarini tarixiy aspektida o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan yanada rivojlana boshladi. Ma'lumki, o'zbek tarixiy onomastikasi, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy bitiklar ( tarixiy asarlar, memuarlar, axloq-odobga, falsafa va diniy e'tiqodga bag'ishlangan qo'lyozmalar) dagi nomlar deyarli tadqiq qilinmagan. Ismlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri "tarixiy ismlar" tushunchasini aniqlashtirishdir. Tarixiy ism deb nom olgan ismlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ma'lum bir qismi hozirgi o'zbek ismlari fondida iste'molda mavjuddir. Bunday ismlar makon va zamonga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, lekin qo'llanilishi, hayotiylik jihatidan zamonaviy hamdir. Shunday xulosa chiqarish mumkinki, bunday ismlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Demak, hozirgi kunda tilimizda qo'llanilib kelayotgan Temur, Farhod, Jamshid, Afrosiyob, Tangriberdi kabi ismlar ana shunday xususiyatga ega.

### Asosiy qism

Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi<sup>1</sup>. Haqiqatan ham agar kishi nomlari xalq orasida keng iste'molda bo'lmas ekan, xuddi tillar kabi "o'lik"ka aylanadi. Antroponimlarning turli tarixiy davrlardagi holati va taraqqiy etishini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Мамажонов М. Антропонимларнинг дискурсдаги релевантлик ва семантик-функционал хусусиятлари: Филол. фан. док...ри. дисс. Фарғона, 64-бет.



Taniqli nomshunos N.Husanov o'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab ikki guruhga ajratadi:

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (VI – XIV asrlar).
2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (XV asr va keying davrlar).

Boshqa bir adabiyotlarda "O'zbek antroponimikasi" ning tarixiy bosqichlari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) Islomgacha bo'lgan davrda antroponimlar;
- 2) XI-XIV asrlarda antroponimlar;
- 3) XV-XVII asrlarda antroponimlar;
- 4) XVIII-XX asrlarda antroponimlar;
- 5) XXI asrlarda antroponimlar.

Bizning fikrimizcha ham yuqoridagi ikkala tasnif ham bir-birini to'ldiradi. Tarixiy antroponimlar o'zbek tilshunosligida dastlab Mahmud Koshg'ariy tomonidan o'rganila boshlagan bo'lsa, XX asrning 60-yillaridan boshlab, E.Begmatov o'zining nomshunoslikka oid tadqiqotlari bilan o'zbek tilshunosligining onomastika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ancha boyitdi. E.Begmatovning "Antroponimiyadagi qadimiy turkiy elementlar" maqolasidan so'ng, muallifning qadimiy turkiy yodnomalardagi antroponimlarga bag'ishlangan maqolalari e'lon qilindi. Shuningdek, V.U.Maxpirov "Devonu lug'otit turk" asaridagi kishi ismlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi va Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi" nomli tadqiqotida esa bir qator ismlar diaxronik planda tahlil qilingan<sup>2</sup>. Undan oldin navoiyshunos olimlar A.Rustamovning bir nechta tadqiqotlari va B.Bafoyevning "Navoiy asarlari leksikasi" nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgan edi<sup>3</sup>.

Xususan, M.Turdibekovning Abulg'ozii Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasiga, I.Xudoyazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari ham o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etdi. M.Tillayeva Xorazm onomastikasi tizimining lisoniy-tarixiy tadqiqini "Avesto" asari onomastikasi bilan qiyosiy yo'nalishda o'rgandi va Xususan, R.Shukurov va G.Jo'raboyevalarning "Tarixi Rashidiy onomastikasi" nomli monografiyasi ham ahamiyatga molik. Mazkur monografiyada asar tarkibida uchrovchi barcha onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar, tarixiy ismlar, ularning leksik-semantik xususiyatlari, etimologiyasi haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Tarixiy nomshunoslik haqida so'z yuritilganda yana shuni aytish joizki, sanab o'tilgan ilmiy ishlar mazkur soha bo'yicha qilingan dastlabki qadamlar bo'lsa-da, lekin onomastika sohasi mukammal va to'laqonli tadqiq etildi, degan xulosalarni bermaydi. Tarixiy antroponimlar ko'proq XV asr yodnomalarida, xususan, Navoiy, Ahmadiy, Gadoyi, Atoyi, Lutfiy, Sakkokiy, Said Ahmad, Said Qosimiy, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Husayn Boyqaro kabi ijodkorlarning asarlarida uchraydi va ular mazkur sohani o'rganishda asosiy manba vazifasini o'taydi. Chunonchi, nomshunos olim N.Husanov qayd etganidek, "Tarixiy yodgorliklardagi antroponimlar o'zbek nomshunosligida

<sup>2</sup> Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. ... автореф - Тошкент, 1994.

<sup>3</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. - Б. 37-44



eng kam o'rganilgan qatlamdir"<sup>4</sup>. Shunday ekan, yodgorliklar onomastikasini diqqat qilib o'rganish va tadqiq qilish tarixiy antroponimiya oldida turgan bir qancha muammolarni yechish imkonini beradi. Xolbuki tilimizdagi antroponimlar qadimgi davrlarning mahsuli bo'lib, ularning ilk negizlari ko'hna manbalarda o'z ifodasini topgan. N.A.Husanovning "XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi va bir qator tadqiqotlari hozircha o'zbek tarixiy antroponimiyasiga bag'ishlangan yagona tadqiqot bo'lib turibdi. N.Husanov XV asr o'zbek adabiy yodgorliklari tilidagi antroponimlarni tadqiq qilar ekan, ularni diniy antroponimlar, badiiy antroponimlar va real antroponimlarga bo'ladi<sup>5</sup>. U tadqiqotida payg'ambarlar, ularning avlod-ajdodlari nomining ma'no va genetik manbayiga batafsil to'xtalgan, xalifalar va avliyolarning nomlari ham tahlilga tortilgan. Olim XV asr yodgorliklarida takror uchraydigan va hozirgi o'zbek antroponimiyasida funksional bo'lgan ismlarni, ya'ni *Dilorom, Farhod, Navruz, Zulayho* kabi ismlarni "an'anaviy antroponimlar"<sup>6</sup> deb yuritadi. Haqiqatan ham mazkur ismlar XV asr yodnomalarining deyarli barchasida uchrashi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, XV asrda qo'llangan antroponimlar hozirgi davrda qo'llanayotgan antroponimlardan juda jiddiy farq qiladi. Masalan, ba'zilarining ma'nosi o'zgargan, ba'zilari esa qo'llanishdan to'xtagan.

So'z mulkinging sultoni, buyuk shoir Alisher Navoiy asarlaridagi atoqli otlar o'zbek tarixiy onomastikasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarida o'zi bilan bir davrda yashagan tarixiy shaxslarning nomlarini juda ko'p keltirgan. Jumladan, "Majolis-un nafois" asarida 459 ta shoirlar nomi tilga olingan. Mazkur asarda Navoiy bilan zamondosh bo'lgan kishi nomlarini uchratishimiz mumkin: Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Hadichabegim, Sulton Abusaid, Mirzo Ulug'bek, Mavlono Lutfiy, Xoja Muhammad Porso, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Hasan, Sakkokiy va boshqalar. Bu kishi nomlari tarixiy antroponimlar bo'lib, XV asr o'zbek onomastikasi uchun boy material bo'lib, o'sha davrda kishilarni nomlash tartibi haqida ham ma'lumot beradi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarida qo'llangan kishi nomlari ham tarixiy antroponimlar sirasiga kiradi. "Tarixi muluki ajam" asari tarkibida jami oltmish uchta antroponim, jumladan, peshdodiylar sulolasiga mansub 11 ta, kayoniylar sulolasiga mansub 9 ta, ashkoniylar sulolasiga mansub 15 ta va so'nggi sulola sosoniylar sulolasiga mansub 28 ta kishi nomlari qayd etilgan.

Tarixiy shaxs nomlari hayotda yashagan aniq shaxs nomlaridir. Nomlarda Navoiy asari bilan bog'liq davr, xalqlarning urf-odatlarini, yashash tarzi, eski til unsurlarining ifodalanishini anglash qiyin emas. Navoiy asari antroponimlari tizimida tarixiy shaxslar sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan davlat boshqaruvidagi shaxslar, ya'ni podshohlar ismlari ham mavjud. Quyida ana shunday tarixiy shaxs nomlari haqida to'xtalamiz:

**Bahrom** – (forscha) Mirrix (Mars) sayyorasining nomidan. U baxt-saodat timsoli hisoblanadi yoki Bahrom (qadimgi Eron shohlaridan biri)dek mard, jasur bo'lsin<sup>7</sup>. Navoiy

<sup>4</sup> Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 2

<sup>5</sup> Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол фан. ном .... дис,автореф. Тошкент, 2000. 9-бет.

<sup>6</sup> Ўша автореферат. 21-23-бетлар.

<sup>7</sup> О'sha kitob, 52-бет.



o'zining boshqa asarida, jumladan, "Sab'ayi sayyor" dostonida ham Bahrom obrazini keltiradi. Ikkala asardagi Bahrom obrazining xarakteri deyarli bir xil. Bahrom ismining kelib chiqishi haqida ma'lum fikrlar mavjud: ba'zilar bu nomni Avestodagi Veretragnaning fonetik o'zgarishga (Veretragna-Varaxran-Vaxran-Baxran-Bahrom) uchrashidan kelib chiqqan deb hisoblaydi<sup>8</sup>. Bahrom antroponimi an'anaviy ismlar sirasiga kiradi. Chunki mazkur ism dastlab Abulqosim Firdavsiy, keyinchalik xamsanavislar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy ijodida keng qo'llanilib, xamsachilikning an'anaviy bir obraziga aylanib qoldi. Alisher Navoiy "Tarixi muluki ajam" asarida Bahrom ismli sakkizta podshoh bo'lganini ko'rsatib o'tadi.

**Kayumars (Qayumars)** -turkiy va forsiy xalqlar og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan va afsonaviy obraz. Uning turli xil variantlarini qadimiy yozma manbalardan "Avesto", "Tarixi Tabariy" hamda Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar" nomli kitobida, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ko'rish mumkin. Kayumars "Avesto"da Gaya Maretan, pahlaviy tilida Gayomart, fors tilida Kavomars, tojik tilida Kayumars, "Qiyos ul-lug'at"da Kayumars "o'lim hayoti, inson hayoti, tirik murda" degan ma'noni anglatadi, fors mifologiyasida esa birinchi odam deya talqin qilinadi.

**Faridun** (forscha) - yagona mashhur. Alloh olqishlagan yoki uch karra qudratli<sup>9</sup>. Afsonaviy peshdodiy podshohlaridan biri. Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da yozadi: «Faridun yaxshi axloqliq olim va odil podshoh erdi. Faridunning podshohligi besh yuz yil erdi...". E.Begmatov o'zining "O'zbek ismlari izohi" kitobida Faridunni qizlarga qo'yiladigan ism deb aytgan, lekin asarda Navoiy shoh nomi sifatida qo'llaydi. Firdavsiyning "Shohnoma"sida Faridun "Afridun" shaklida uchraydi va podshoh sifatida besh yuz yil hukmronlik qilganligi ta'kidlanadi.

### Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, onomastika va uning mahsuli hisoblanuvchi antroponimika uzoq davrlardan beri tilimizda saqlanib kelayotgan lug'aviy boylik sanaladi. Antroponimlar xalqning tarixi va ma'naviyatini o'zida mujassam etadigan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning ma'no, yuzaga kelish, rivojlanish, qo'llanish kabi xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tarixiy yodgorliklardagi antroponimlar o'zbek nomshunosligida eng kam o'rganilgan sohadir. Shu bois tarixiy asarlardagi kishi nomlarini o'rganish orqali ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

### References:

1. Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол фан. ном ... дис,автореф. Тошкент, 2000. 9-бет.
2. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол.фан.номз. ...автореф - Тошкент, 1994.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.- Б. 37-44

<sup>8</sup> Гафуров А. Имя и история. — Москва: Наука, 1987. — С 60

<sup>9</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари изохи.Тошкент, 453-бет



4. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 2
5. Мамажонов М. Антропонимларнинг дискурсдаги релевантлик ва семантик-функционал хусусиятлари: Филол. фан. док...ри. дисс. Фарғона, 64-бет
6. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изохи. Тошкент, 453-бет
7. Гафуров А. Имя и история. — Москва: Наука, 1987. — С 60
8. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 2
9. Rustamovna, U. N., & Toxirjonovna, M. O. (2022). Polysemy-Semantic Universal. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 11-15.
10. Umarova, N. R. (2020). The interpretations of the nation "CONSEPT". *ERPA international journal of multidisciplinary research (IJMR)*, 6, 437-439.
11. Rustamovna, U. N., & Alisherovna, A. N. (2021). Mention of plant names in the poems of Alisher Navoi. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(6), 1-5.
12. Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARTISTIC ANTHROPONYMS IN THE POEMS OF ALISHER NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (5), 419-421.
13. Umarova, N. R. (2021). A linguistic approach to conceptual research. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 62-66.
14. Umarova, N. R. (2020). The concept "word" in the works of Alisher Navoi. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 256-262.
15. Умарова, Н., & Абдувалиева, Н. (2020). Алишер Навоий ғазалларида мақол ва ибораларнинг маъновий хусусиятлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 105-111.
16. Umarova, N. R., & Abduvalieva, N. (2020). Alisher Navoiy G „azallarida ziddiyatning ifodalanishi.“. *So 'z san'ati' xalqaro jurnali*, 248-255.
17. Umarova, N. R., & Kholmatova, O. U. (2021). Proverbs and their morphological system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 792-797.
18. Fattohov, K. K., & Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARABICISM IN THE WORKS OF NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (4), 426-428.
19. Umarova, N. R. (2020). The concept" word" in navoi's works. *FarDU. Ilmiy xabarlar*, 4, 127.
20. Umarova, N. (2020, December). COGNITIVE INTERPRETATION OF RED AND YELLOW COLORS. In *Конференции*.
21. Rustamovna, U. N., & Qizi, M. K. A. (2020). O 'xshatish konstruksiyalarining o 'ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, (III), 347-351.
22. Umarova, N., & Abdullayeva, N. (2019). Some differences of the poetic and poetic and prosaic variants of the poem. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(3), 122-125.
23. Умарова, Н. Р., & Турдалиева, Д. С. (2016). SEMANTIC AND STYLISTIC PROPERTIES OF THE UZBEK PROVERBS MADE ON A BASIS PHYTONYMS. *Ученый XXI века*, (7 (20)), 47-50.
24. Umarova, N. R., Zokirov, M. T., Dusmatov, X. X., Amonov, M. U., & Mamajonov, M. Y. (2020). Frame Structure Of The Concept" Gold" In Navoi's Poem" Iskander's Wall". *Psychology and Education. Journal*, 57(8), 542.
25. Porubay, I. F., Ibragimova, E. I., & Zokirov, M. T. (2022). O NEKOTORIX XARAKTERISTIKAX SPORTIVNOGO DISKURSA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(12), 52-58.



26. Zokirov, M. T., Zokirova, S. M., & Dadabayeva, S. S. (2021). About The Influence Of The Uzbek Language In Rishtan Tajik Dialects Of Ferghana Region. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(4).
27. Zokirov, M. T. (2007). Lingvistik interferensiya va uning o'zbek-tojik bilingvizmida namoyon bo'lishi. *Fil. fn ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya*.
28. Zokirov, M., & Isomiddinov, F. (2020). December). About the holes of language language dictionary. In Konferencii.
29. Turdaliyevich, Z. M. (2022). BADIY NUTQ USLUBINING TARAQQIYOTI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 681-685.
30. Turdaliyevich, Z. M., & Muzaffar, M. (2022). INGLIZ TILIDAGI REKLAMA MATNLARIDA ANTROPONIMLAR QO 'LLANISHI XUSUSIDA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(8), 121-124.
31. Turdaliyevich, Z. M. (2022). YOZUVNING KELIB CHIQISH TARIXI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 56-62.
32. Zokirov, M. T. (2015). Ob общей характеристике бilingvizма. *Uchyonyy XXI veka*, (7-8 (8-9)), 24-27.
33. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). About Lexical-semantic Interference in the Speech of Tajiks, Living in Fergana Region of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 12(3), 10-11.
34. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). Contrastic analysis at the phonetic level. *Academic Leadership (Online Journal)*, 21(05), 163-169.
35. Zokirov, M. T. (2021). ABOUT THE INTERRELATIONSHIPS OF LINGUISTICS AND PSYCHOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 422-425.